

---

## QO'SHTEPA TUMANIDA IFTORLIK TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA



Qo'shtepa tumanida Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan muborak Ramazon oyida insonlar o'rtasida xayru saxovat va mehr-muhabbat rishtalarini yanada mustahkamlash maqsadida "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi davlat birligi ramzi" shiori ostida mahallalarda iftorlik dasturxonlari yozilmoqda.

Avval xabar berganimizdek tumanimizning barcha hududlarida shu muborak kunlarda ehtiyojmand oilalarga mehr-oqibat ko'rsatilib, tuman hokimligi, sektor rahbarlari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'linmasi va xomiyar tomonidan mahallalarda iftorlik tadbirlari tashkil etilmoqda.

Xususan bugun Namuna mahallasida kam ta'minlangan, ehtiyojmand, nogironligi bor bo'lgan fuqarolar va nuroniylar uchun iftorlik dasturxonlari yozildi.

Tadbirda tuman hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov ishtrok etib muborak Ramazon oyi bilan ishtirokchilarni samimiy qutlab, ushbu muborak oy barchaga xayrli va barakatli bo'lishini tiladi.

Bu kabi iftorliklar tumanimizdagi har bir mahallalarda davom etadi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-04-08 21:04:04